Dastlabki ma’lumotlar

# 2023- yilning yanvar – iyun oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar – iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 15 568,2 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 15 036,4 mlrd. so‘mni (103,9 %), o‘rmon xo‘jaligi – 432,5 mlrd. so‘mni (89,3 %), baliqchilik xo‘jaligi – 99,3 mlrd. so‘mni (100,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 10,1 %ni tashkil etdi.




**15 568,2** — Toshkent viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **15 036,4** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **432,5** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **99,3** — Baliqchilik xo‘jaligi

# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish sur'ati, %da




## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari



2023- yilning yanvar – iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,4 %i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,1 %i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,5 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2023- yilning yanvar – iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (1 554,2 mlrd. so‘m) O‘rta Chirchiq (1 371,0 mlrd. so‘m), va Bo‘stonliq (1 182,2 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (10,6 mlrd. so‘m), Ohangaron (31,6 mlrd. so‘m) va Nurafshon (40,5 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent tumani (110,2 %), Bo‘ka tumani (104,3 %), Nurafshon shahar (107,3 %) va Yangiyo‘l shaharlarda (106,8 %) kuzatildi. Angren shahar (100,3 %), Oqqo‘rg‘on tumani (100,4%) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar – iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 14 795,5 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 5 135,5 mlrd. so‘mni (104,5 chorvachilik mahsulotlari – 9 660,1 mlrd. so‘mni (104,5 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 79,5 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 10,5 % – fermer xo‘jaliklariga, 10,0 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2023- yilning yanvar – iyun oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent tumanida (34,3%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Chirchiq shahrida (99,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Ohangaron shaharda (38,5 %) qayd etildi.



# Dehqonchilik mahsulotlari

2023- yilning yanvar – iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 135,5 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 34,7 %ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 353,2 ming t. don va dukkakli don (2022– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 19,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don va dukkakli don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,5 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 142,2 ming t. kartoshka (2022– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Toshkent viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar












2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 347,3 ming t. sabzavotlar (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 0,3 %ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirildi ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirildi umumiy hajmidan 89,4% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Toshkent viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish, tonna





# Chorvachilik mahsulotlari

2023- yilning yanvar – iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 9,660,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,5 %ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulot-larining ulushi 65,3 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 153,3 ming t. go‘sht (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,6 % ga ko‘p), 491,0 ming t. sut (3,6 %ga ko‘p), 580 mln. dona tuxum (112,2 %ga kam), yetishtirildi va 4 962,4 t. baliq (0,1 %ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalaribo‘yicha taqsimlanishi**






2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 153,3 ming t. go‘sht (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,6 %ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 83,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Toshkent viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalaribo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 491,1 ming t. sut (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 0,9 %ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 92,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo'yicha sut yetishtirish, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 580,5 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 12,2 %ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 63,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalaribo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4 962,4 t. (2022- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 0,1 %ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan, baliqchiliklar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 92,0 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Toshkent viloyati bo‘yicha ovlangan baliqlar, tonna





# Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumyiy sonidan 29,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 63,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumyiy sonidan 18,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 77,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 0,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 56,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 43,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 940 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 20,7 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 86,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 406 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 6 ming taga (1,5 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Toshkent viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 090 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 5 ming taga (0,5%) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 63,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1– iyul holatiga koʻra, otlarning umumiy bosh soni 55 404 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda otlar bosh soni 707 taga (1,3 %) koʻpaydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**Oʻsish surʼati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1– iyul holatiga koʻra, otlar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami otlarning 77,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 15 589 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 1 315 ming taga (9,2%) ko‘paygan.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 56,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha parrandalar ning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 71-202-86-69
- 99-444-34-03